



“LOVE” VA “MUHABBAT” KONSEPTLARINING LINGUA-KULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Alisher Maxmudov Yo'ldoshevich,

Qarshi davlat universiteti

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

+99893-422-31-11

alischer-2473@mail.ru

Elmirzayeva Maftuna,

Magistrant, Qarshi davlat universiteti

tel: +998 88 9518881

maftuna-81@mail.ru

Annotation

Both English and Uzbek have a love-happiness relationship and are the most commonly used expressions. The expression of love as an emotion through negative experiences and words is observed in both languages

Keywords:

Intensity level, phrase logical units, emotional experience, color emotion, analogical concept

Annotatsiya

Ingliz va o'zbek tillarida ham muhabbat – baxt aloqasi mavjud bo'lib, eng ko'p qo'llanadigan ibora hisoblanadi. Muhabbat tuyg'u sifatida salbiy kechinmalar va so'zlar bilan ifodalanishi ikki tilda ham kuzatiladi.

Аннотация

И английский, и узбекский языки связаны любовно-радостными отношениями и являются наиболее часто используемыми выражениями. Выражение любви как эмоции через негативные переживания и слова наблюдается на обоих языках.

Калит сўзлар:

Intensivlik darajasi, frazeologik birliklar, emotsional kechinma, rangli hissiyot, analogik konsept

Ключевые слова:

Уровень интенсивности, фразеологизмы, эмоциональный опыт, цветовая эмоция, аналогическое понятие

Ingliz tilida “Muhabbat”ning eng yuqori intensivlik darajasi inkor ma'nosini anglatuvchi prefix va suffikslar insefikator sifatida ishlatiladi: *unconditional love* – so'zma-so'z tarjimasini *so'zsiz muhabbat*, *uncontrollable love* – so'zma-so'z tarjimasini *yashirib bo'lmas muhabbat*. Ammo hamisha ham prefikslar va suffikslar bu ma'noni o'zida tashimaydi: *hopeless love* – so'zma-so'z tarjimasini *umidsiz muhabbat*, *natijasiz muhabbat*, *unrequited love* – so'zma-so'z tarjimasini *javobsiz muhabbat*:

When he suffered from the pangs of unrequited love John immediately got an ocean liner.

Javobsiz muhabbatining og'riqlari bezovta qilganda, Jondarroov okean layneriga chiqib olardi.

O'zbek tilida bunday intensivliklar mavjud, masalan, *so'zsiz muhabbat, e'tirozsiz muhabbat* va muhabbatning eng yuqori darajasini ifodalash uchun maxsus frazeologik birliklar ishlatilib, ular insonni normal ruhiy holatda emasligiga ishora qiladi: *jinnilarcha sevib qolmoq, tentaklarcha oshiq bo'lmoq, muhabbatdan aqlini yo'qotmoq*:

Haqiqiy, oliyjanob, manfaatsiz muhabbatni ifodalashda ingliz tilida *tender love* – so'zma-so'z tarjimasi *nozik muhabbat, true love* – so'zma-so'z tarjimasi *haqiqiy muhabbat* birikmalari ishlatiladi. Bundan tashqari, muhabbatning intensivligi ifodalashda ingliz tilida *death* – o'lim so'zi ishlatiladi, *be dead nuts on smb.* - so'zma-so'z tarjimasi *savdoyiga aylanmoq, be dead gone in love* – so'zma-so'z tarjimasi *o'limini bo'yniga olib sevmok, be death on* – so'zma-so'z tarjimasi *joni halqumiga kelmoq* va boshqalar.

Ingliz tilida baholash komponenti mavjud bo'lsa-da, ammo unchalik yaqqol emas. O'zbek tilida uchramaydigan muhabbatning intensivlik darajasida noaniqlik keltirib chiqaradigan birliklar ham mavjud: *kind of a love* – so'zma-so'z tarjimasi *muhabbat singari narsa, sort of a love* – so'zma-so'z tarjimasi sevganday bo'lmoq, *partly in love* - so'zma-so'z tarjimasi *ozgina sevmok, slightly in love* – so'zma-so'z tarjimasi *kamgina sevmok*.

It was alimpid, beautiful day and she was a little bit in love.

Ochiq, ajoyib kun edi va u kamgina sevgan edi.

Ammo o'zbek tilida kamgina muhabbat va ozgina muhabbat degan tushunchalar mavjud emas. Bunday formalar yoki birliklar o'zbek tili uchun normal holat emas. Inson yarmida sevib, keyin sevmay qo'yolmaydi.

Muhabbatning ikki tomonlama murakkab, qarama-qarshi tuyg'u bo'lib, aytib o'tganimizdek, bir vaqtning o'zida ijobiy emotsional kechinma va salbiy rangli hissiyot sifatida qarashimiz mumkin. Muhabbat ijobiy emotsional kechinma sifatida *baxt/happiness, hursandchilik/ joy, sadoqat, yaqinlik/affection, zavq/delight, qiziqish/interest, mamnuniyat/pleasure, mehribonlik/care, hayajon/excitement* kabi so'zlar bilan bog'liq.

Ikki tilda ham muhabbat – baxt aloqasi mavjud bo'lib, eng ko'p qo'llanadigan ibora hisoblanadi. Muhabbat baxti bilan birgalikda, o'zbek tilida *muhabbatdan baxt topmoq, muhabbat – baxt kaliti* va shu kabi birikmalar mavjud. Lekin aynan shu ma'noni berish uchun, ingliz tilida boshqacha yo'l tutish lozim. Chunki ingliz tilida “*happy*” kayfiyatida hayot “*life*”, millat “*nation*” yoki kinoning oxiri “*end*” bo'lishi mumkin, ammo muhabbatning “*happy*” iborasi yo'q. Uning o'rniga tilda “*happy in love*”- so'zma-so'z tarjimasi *muhabbatdagi baxt, “feel in love and happiness”* – so'zma-so'z tarjimasi *muhabbat va baxtni his qilmoq*.

“At least”, she corrected herself, “not of a woman who's happy in love”

“Hech bo'lmaganda” dedi u o'zini rostlab, “bitta ayol muhabbatdan baxt topadi”.

Muhabbat baxtni his qilishda muhabbat qo'yilgan kishi bilan aloqa va munosabatlar bo'lishi kerak, shundan kelib chiqib muhabbat – yaqinlik iborasi ikki tilda ham mavjud.

Ikki oradagi suhbatlar, tinglangan she'rlar va javob she'rlar allaqachon yaqin munasabatlari keltirib chiqargan edi.

We see each other every now and again, but we aren't joined at the hip like Siamese twins, you know.

Yana va yana biz uchrashdik, ammo bilaganingdek, biz qalban yaqinlasha olmadik.

Qo'shimcha ravishda shuni aytish mumkin, ikki tilda ham yaqinlik – muhabbat munosabatlarida salbiylik xususiyati mavjud, masalan, ingliz tilida *love knots* – so'zma-so'z tarjimasi *muhabbat tugunlari, love chains* – *muhabbat zanjiri*; o'zbek tilida esa *muhabbat zanjiri, muhabbat uchligi, muhabbat kishani*:

O'zgarma so'z birikmalarida intensivlikning yuqori darajasiga misol bo'ladigan hissiyot obyektiga nisbatan mehr ko'rsatish, mehribonlik qilish semantic belgisini ko'rsatish mumkin: ingliz tilida *caring love, for the love of smb, labour of love, love-taken*; o'zbek tilida *muhabbatini asramok, muhabbatini himoya qilmoq, muhabbat g'unchasini asramok, mehr bermok*;

This was real love, love that was tender, caring and unselfish.

Bu haqiqiy muhabbat edi, shunday muhabbat ediki, beg'ubor, mehrliva manfaatsiz.

Muhabbat tuyg'u sifatida salbiy kechinmalar va so'zlar bilan ifodalanishi ikki tilda ham kuzatiladi. Bu salbiy emotsional holatlar kompleksi quyidagicha: *muhabbat* – qayg'u/sorrow, *muhabbat*– sog'inch/longing for, *muhabbat* – umidsizlik, *muhabbat* – qiynoq/suffering, *muhabbat* – og'riq/pain, *muhabbat* – qo'rqinch/fear.

Juda ko'p holatlarda muhabbat va nafrat konseptlari bir – birini taqozo qiladigan, o'zaro aloqador va to'g'ridan – to'g'ri bog'liqlikda bo'la oladigan ingliz\ tilida ham, o'zbek tilida ham uchraydigan bitta semantik guruhga mansub tushunchalar hisoblanadi. Suning uchun taqqoslanayotgan tillardagi analogik hisoblanadi.

Those who did know him had little idea that he was dangerous psychotic, who nurtured a deep hatred for his parents.

Uni bilganlar, hattoki uni xavfli ruhiy nosog'lom ekanligini va ota-onasini o'lguday yomon ko'rishini bilmasdi.

As she looked up at him she saw such tenderness, such deep love in his eyes that her own filled with tears.

U yigitning ko'zlariga qaraganda, shunday beg'ubor va kuchli muhabbatni ko'rdiki, uning ko'zlari yoshga to'ldi.

Muhabbat va nafrat analogik konseptlar hisoblansa-da, ammo biz "bir ko'rishda nafrat" yoki "hate at first sight" deya olmaymiz, ular to'liq analogik konseptlar hisoblanmaydi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilida *muhabbat* – *uyg'u*, *mulohazakorlik* va *bama'nilik* hisoblanadi. Muhabbat nosog'lom, kasallik vaziyati bilan bog'liq, bu vaziyatda sevgan kishi o'zini qalban bemor, ongsiz va mast kishi sifatida his qiladi. Boshqacha aytganda, o'zini sog'lom deb hisoblamaydi. "Inglizcha muhabbat"- tanlangan obyektga mehribonlik ko'satish, ahamiyat berish, qadrlash va ezgulik tilash, nosog'lom bo'lib qolib, boshqalardan kuchliroq ekanini his qila olishidir.

O'zbek tilida muhabbat – o'z hayotini o'sha obyektga bag'ishlash, unga mehr ko'rsatish va uni asrash hamda butun umrini bag'ishlash hisoblanadi. Bundan tashqari, muhabbat o'zi zanjiri bilan bog'lasa-da, muhabbatini baxt kaliti deb hisoblalash, jinnilaracha uning izmiga tushib qolish va undan qattiq iztirob chekish bilan izohlanadi. Xullas, "*o'zbekcha muhabbat*" – qalbni sevgan insonga bag'ishlash, uni qadrlash, o'z manfaatidan voz kechish, kar va ko'r bo'lib, ishq dardida kuymoq hisoblanadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Lakoff. G. Women, Fire and Dangerous things: What Categories Reveal about the Mind. The University of Chicago Press. Chicago, 1987.753 p.
2. Macmillan English Dictionary for Advanced Learners. Macmillan Publishers Limited. London, 2002.1692 p.
3. Oxford Advanced Learners' Dictionary. Oxford University Press. Oxford, 1999.1488 p
4. Safarov. Sh. "Pragmalingvistika". "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2008.